

**BALIQLAR (PISCES) KATTA SINFINING BIOLOGIK VA
IQTISODIY AHAMIYATI**

Andijon davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yoʻnalishi 2-bosqich talabalari

Sodiqova Mohinur Akmaljon qizi

(qwerty2121rr@gmail.com)

Sirojiddinova Martabo Husniddin qizi

(sirojiddinovamartabo@gmail.com)

Annatatsiya: Baliqlar (pisces) katta sinfi Jagʻogʻizlilar boʻlimining eng qadimgi va tuban tuzilgan umurtqali hayvonlaridan hisoblanadi. Baliqlarning 20 mingdan ortiq turi maʼlum boʻlib, ular tirik organizmlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Baliqlar trofik zanjirning asosiy pogʻonasida joylashgan boʻlib, ozuqaviy ahamiyati bilan birga dori-darmon sanoatida, kimyo sanoatida va estetik zavq olish hamda laboratoriya jarayonida tajriba hayvoni sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: Baliqlar, sinf, turkum, oila, tur, okean, dengiz, koʻl, baliq yogʻi, baliq uni, tibbiyot, omega-3, hayvonlar, oʻsimliklar, insonlar, suv havzalari, baliqchilik sanoati, baliq goʻshti, qimmatbaho yelim, tangachalar, vitamin.

Key words: fish, class, genus, family, species, ocean, sea, lake, fish oil, fish meal, medicine, Omega-3, animals, plants, humans, water bodies, fishing industry, fish meat, precious glue, coins, vitamin.

Ключевые слова: рыба, класс, род, семейство, вид, океан, море, озеро, рыбий жир, рыбная мука, лекарство, омега-3, животные, растения, человек, рыбная промышленность, водоемы, мясо рыбы, драгоценный клей, монеты, витамин.

Baliqlar katta sinfi togʻayli baliqlar va suyakli baliqlar sinflariga ajratib oʻrganiladi. Baliqlarning shu jumladan togʻayli baliqlarning tabiatda va inson hayotidagi ahamiyati katta. Dunyodagi ovlanadigan baliqlarning 1,5-2 % ini togʻayli baliqlar tashkil etadi. Ayniqsa togʻayli baliqlar goʻshti Avstraliya va Yaponiyada yashaydigan aholi tomonidan ovqat sifatida keng isteʼmol qilinadi. Yevropa mamlakatlari va AQSH da togʻayli baliq mahsulotlari qayta ishlanib, baliq uni tayyorlanib qishloq xoʻjaligi hayvonlariga va parrandalarga ozuqa sifatida beriladi. Akulalarning jigaridan baliq yogʻi olinadi. Baliq yogʻi tarkibida koʻp miqdorda " A " vitamini mavjud, u tibbiyotda ishlatiladi. Akula yogʻidan optik asboblarni yogʻlash va pardoqlash maqsadida ham foydalaniladi. Shuningdek, akula va skatlarning terisidan turli-tuman teri buyumlari, jumladan, poyabzal va galanteriya mahsulotlari

tayyorlanadi. Tog‘ayli baliqlarning boshi va suzgich qanotlari qaynatilib qimmatbaho yelim olinadi.

Ohirgi yillarda har yili akulalarning 300 ming turlari ovlanadi. Tog‘ayli baliqlarning foydasi bilan birga bir qatorda zararli tomonlari ham bor. Ayrim tur akulalarning jumladan, qutb akulaning, bolg‘abosh akulaning go‘shidan zaharlanish holatlari bo‘lishi ham mumkin. Akulalarning 50 ga yaqin turlari odam uchun xavfli hisoblanadi. Ixtiolog olimlarning ma‘lumotlariga qaraganda, so‘ngi yillarda akulalar 1410 ta odamga hujum qilgan, bulardan 477 tasi halok bo‘lgan. Umuman, akulalar har yili 40 tadan 1000 tagacha odamlarni halok qiladi. Odamlarga yo‘lbars akulasi, treska akulasi va karhorodon akulalar hujum qiladi.

Akulalarning quyidagi turkumlarining vakillari tabiat va inson hayotida ham bir qancha ahamiyat kasb etadi. Tikanli akulalarning go‘shiti mazali bo‘lganligi sababli ovlanadi. Arraburun akulalar va seldsimon akulalar ham go‘shiti uchun ovlanadi. Gigant akulalar ham ov ahamiyatiga ega va shuning bilan birga jigaridan baliq yog‘i ham olinadi. Mushuksimon akulalar go‘shiti iste‘mol qilinadi va terisi ham ishlatiladi. Kulrang ya‘ni ko‘k akulalarning go‘shiti qo‘llansa hidli bo‘lgani uchun kam iste‘mol qilinadi, terisi va jigaridan olinadigan baliq yog‘i uchun ovlanadi. Bolg‘aboshli akulalar va dalatsimon akulalar ya‘ni tog‘ri og‘izlilarning go‘shiti istemol qilinadi, terisi va jigaridan ham foydalaniladi.

Skatlar turkumining qoziqdumlilar oilasi vakillari vitaminli baliq yog‘i olish maqsadida ovlanadi va go‘shiti ham iste‘mol qilinadi. Dengiz ajinalari yoki shaytonlari deb nomlangan skatlarning go‘shiti iste‘mol qilinadi va jigatida baliq yog‘i bo‘lib, "D" vitaminiga boy.

Amiyalar yoki loyqa baliqlar turkumining vakillari go‘shiti unchalik mazali emasligi va qattiqligi sababli ovqatga ishlatilmaydi. Bir muncha baliqlarni qirib ziyon yetkazadi. Lososlar katta ov ahamiyatga ega. Chunki bu baliqning go‘shiti mazali hisoblanadi, undan tashqari bulardan qizil ikra ham olinadi. Ularning ikراسi osyotrlarning ikراسida keyin sifati va mazasi jihatidan ikkinchi o‘rinda turadi. Hozirgi kunda ularning soni kamayib ketganligi sababli sun‘iy ko‘paytirish ishlari olib borilmoqda. Karplar ham ov ahamiyatga ega bo‘lgan baliqlar qatoriga kiradi. O‘zbekiston suv havzalaridan zog‘ora baliq, moy baliq, tovon baliq, oqcha, oq amur, amur humboshi va boshqa baliqlar ovlanadi.

Oq amur, amur humboshi Amur havzasidan keltirilgan bo‘lib, O‘zbekistonda iqlimlashtirilgan. Karplarning go‘shiti sifati va mazasi jihatidan losossimonlarnikiga yetmaydi. Dunyoda ovlanadigan baliqlarning 4,5 % karp baliqlariga to‘g‘ri keladi.

Kefalsimonlar turkumi vakili gambuziya balig‘i bezgak chivini lichinkasi kushandasi bo‘lganligi unchun Kavkazda va O‘rta Osiyoda iqlimlashtirilgan. Turamjabralar turkumi ov ahamiyatiga ega bo‘lmagan baliqlar hisoblanadi. Sudaklar ov ahamiyatga ega bo‘lgan baliqlar hisoblansa aksincha okunlar unchalik ov ahamiyati

yo‘q. Skumbriyalar oilasining vakillari Qora dengizdagi juda qimmatli va muhim ovlanadigan baliqlar qatoriga kiradi, shuningdek, tunetslar va buqa baliqlar ham muhim ov ahamiyatga ega bo‘lgan baliqlardir. Treskasimon baliqlarni ovlash dunyo miqyosida seldsimon baliqlardan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi, ularning go‘shidan tashqari jigaridan olinadigan shifobaxsh baliq yog‘i uchun ham ovlanadi. Kambalasiimon baliqlar Murmansk va Uzoq Sharq o‘lkalarida ko‘p ovlanadi

Odatda bolalarga tarkibida miyaga foydali hisoblangan ko‘p miqdorda fosfor bo‘lgani uchun baliq yeyishni tavsiya qiladilar. Lekin tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, miya faoliyatini rivojlanishiga baliq tarkibidagi Omega-3 yog‘ kislotalari, aniqrog‘i DGK kislotasi bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Asab hujayralarining 20 % aynan shu kislotalardan iborat. Kislotalar asab hujayralarining o‘zaro habar yetkazish jarayonida jiddiy ro‘l o‘ynaydi va ularning kamayishi natijasida bu jarayon sekinlashadi. Bularning barchasi aqil-idrok uchun judayam muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ko‘pincha Omega-3 kislotasi yetishmagan 7 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘qishni yaxshi o‘zlashtiraolmasligi ma‘lum bo‘ldi. Aynan shu yoshda miya tuzilishi shakillana boshlagani uchun aqliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan moddalarni qabul qilish talab etiladi. Omega-3 tabiatda faqat dengiz mahsulotlari tarkibidagina uchraydi . Bu moddalarni inson o‘zi ishlab chiqara olmaydi.

Hozirgi vaqtda inson baliqlardan 40 % gacha hayvon oqsilini olmoqda. Ular asosan qimmatbaho oziq mahsuloti uchun ovlanadi. Baliqlardan oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari, vitamin, baliq yog‘i va boshqa mahsulotlar olinadi.

Ovlanadigan baliqlarning 90% ga yaqini dengiz va okeanlardan tutiladi. Tinch okeanidan 40%, Atlantika okeanidan 45%, Hind okeanidan 10% va Shimoliy muz okeanidan 5% baliq ovlanadi.

Rossiya baliqchilik sanoati yuqori taraqqiy etgan mamlakat hisoblanadi, MDH ning suv havzalarida 1000 tur baliq yashasa shundan 150 turi ovlanadi. Bizda eng muhim ovlanadigan baliqlar seldlar, zog‘ora baliqlar, treskalar, lososlar, osetrlar, sudak va hamsadir. Hozirgi vaqtda Rossiyada faol ov vaqti ya‘ni yil bo‘yi baliq tutish keng rivojlangan. Buning natijasida baliqchilik korxonalariga uzluksiz baliq yetib keladi.

O‘zbekiston qizil kitobiga respublikamiz suv havzalaridagi 84 tur (kenja tur) dan 18 turi mahalliy baliqlarimiz kiritilgan.

Hayvonlardan olinadigan mahsulotlarning 17% qismi baliqlarga to‘g‘ri keladi. Baliqlarning qoldiqlaridan hayvonlarga berish uchun "baliq uni" olinadi. Ko‘pgina turlari jigaridan shifobaxsh va texnik baliq yog‘i olinadi. Tangachalaridan sun‘iy sadaf olinadi. Akula, skatlar, som va beluga ketalar terisi ter-galanteriya sanoati uchun qimmatli hom ashyo hisoblanadi.

Suv muhitidagi inson o‘zig‘ining 85% qismi baliqlarga to‘g‘ri keladi. Ovlanadigan baliqlarning 90% dan ko‘prog‘i dengiz va okeanlardan tutiladi. Shimol

zonasidagi suvlarning 56%, Tropik zona suvlardan 33% va Janubiy zona suvlaridan bor yo'g'i 11 % baliq ovlanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, okeanlarning 8% egallaydigan okean qirg'oqlaridan dunyo bo'yicha ovlanadigon baliqlarning 85 % qismi to'g'ri keladi. Osyotr kabi eng qimmatli baliqlarni ovlash bo'yicha MDH mamlakatlari dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Lososimonlar hozirgi vaqtda kam ovlanadi. Buning sababi ularning miqdori kamayib ketganligidir. Lososlardan eng ko'p ovlanadigan turlariga gorbusha, keta va nerkalar kiradi. Lososimonlarning go'shti va ikrasi mazali hisoblanadi. Hozirgi yillarda o'tkinchi lososimon baliqlarni sun'iy usulda ko'paytirish va chuchuk suv lososlarini iqlimlashtirish borasida ham ko'pgina ishlar qilinmoqda.

Osyotrlar boshqa baliqlarga nisbatan, uncha ko'p ovlanmasa ham, go'shti va ikrasining sifati jihatidan barcha baliqlar orasida birinchi o'rinda turadi. Osyotrlarning dunyo bo'yicha tutiladigan asosiy suv havzasiga Kasbiy dengizi kiradi. Osyotrlar G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada ham uchraydi. Lekin ohirgi yillarda bu baliqlarning ko'plab ovlanishi tufayli ularning ikrasi kamayib ketgan. Shuning uchun ham MDH dunyoda osyotrsimonlarni ovlash va ularni dunyo bozoriga chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

O'zbekiston suv havzalarida baliqlarning asosan 77 turi uchraydi. Shulardan 17 ta turi " O'zbekiston qizil kitobi " ga (2006) kiritilgan. Ohirgi yillarda O'zbekiston suv havzalariga ha Amur daryosidan amur humboshi, oq.amur baliqlari olib kelib, iqlimlashtirilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bir qancha baliqchilik xo'jaliklarida zog'ora baliq, laqqa, oqcha, qora baliq, oqqayroq, xramulya, qizil ko'z, ilonbosh, olabug'a, sla, cho'rtan va boshqa baliqlar ovlanadi.

Baliq yog'i baliqlarning teri osti yog' qatlamidan olinadigan moy. Raxit, sil va shapko'rlikning oldini olish va davolashda, singan suyakning bitishini tezlashtirish va shu kabi ko'plab maqsadlarda ishlatiladi.

Baliq uni baliqdan yoki baliqning kanservalash chiqitlaridan tayyorlanadigan un, baliq uni asosan chorva mollari va parrandalarga ozuqa sifatida beriladi.

Baliqlar nafaqat insonlar balki barcha tirik organizmlar uchun muhim hayvonlar hisoblanadi. Ko'plab dengiz hayvonlarining asosiy ozig'i, ba'zi hayvonlarning tarqalish manbasi, himoya vositasi, yashash muhiti va hk,z. Zamon rivojlangani, taraqqiyot yuksalgani va texnologiyalar ishlab chiqilgani sababli baliqlarning boshqa foydali xususiyatlari ham kashf etilmoqda. Baliqlar dunyosining biologik ahamiyati ya'ni trik organizm sifatidagi ro'li tabiatda muhim ahamiyatga ega ekanligi yuqoridagi ma'lumotlar orqali o'z tasdig'ini oz bo'lsada topdi.

REFERENCE

1. S.Dadayev. K.Safarov. Zoologiya (Xordalilar) Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2009
2. S.Dadayev. O. Mavlonov Zoologiya. Toshkent "Iqtisod -Moliya" 2008

3. Baliqlarning iqtisodiy ahamiyati <https://fayllar.org/5-baliqlarniig-iqtisodiy-ahamiyati.html>
4. Baliqlar ekologiyasi va iqtisodiy ahamiyati <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/zoologiya/baliqlar-ekologiyasi-va-iqtisodiy-ahamiyati>
5. Bolalarning aqliy rivojlanishida baliqlarning ahamiyati <https://daryo.uz/2017/02/19/bolalarning-aqliy-rivojlanishida-baliqlarning-ahamiyati>

